

“KALILA VA DIMNA” ASARIDA OBRAZLAR TALQINI**Fazilat Diyorova***TerDU, O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqola qadimgi hind faylasuflari tomonidan yozilgan, butun dunyo bo‘ylab tarqalgan, asrlar davomida o‘z qimmatini yo‘qotmagan hikmatli so‘zlar va rivoyatlarni o‘z ichiga olgan “Kalila va Dimna” asaridagi turli jonivorlarning majoziy xarakter kasb etishi, ular obrazida ijobiy va salbiy xususiyatlarning asar mohiyatiga qo‘shgan ulkan hissasi aksetgan.*

Kalit so‘zlar: *Kalila, Dimna hind eposi, obraz, shoh, brahman, sher, ho‘kiz*

Аннотация: *В данной статье речь идет об образном характере различных животных в произведении «Калила и Димна», в котором собраны мудрые слова и рассказы, написанные древнеиндийскими философами, которые распространились по всему миру и не потеряли своего значения с течением веков. отражены положительные и отрицательные черты сущности произведения.*

Ключевые слова: *Калила, индийский эпос Димна, образ, царь, брамин, лев, бык*

Annotation: *This article is about the figurative character of various animals in the work "Kalila and Dimna", which contains wise words and stories written by ancient Indian philosophers, which have spread throughout the world and have not lost their value over the centuries. the great contribution of positive and negative features to the essence of the work is reflected.*

Key words. *Kalila, Dimna Indian epic, image, king, brahmin, lion, ox*

Har qanday davrda turli mamlakatlarda turlicha yo‘lboshchilar, xalqning ishonchini qozongan, xalq g‘ami bilan yashagan, yoki bunga loyiq bo‘lmay, fuqaro Xalq boshiga ko‘plab jabr-zulm solgan podshohlar haqida ko‘p eshitamiz.

Xalq manfaati, uning saodatini ko‘zlovchi, davlat boshqaruvini to‘g‘ri olib boruvchi, odilona siyosatli, ilm-ma‘rifatli, jasur va yovqur yetakchi xalq orzularida doimo mujassam bo‘lgan. Shuningdek, qadim Yunoniston, Rim, butunsharq adabiyotida, folklorida xalq o‘z orzularidagi qahramonlarni jonlantirgan. Ular har taraflama yetuk, komil yo‘lboshchini doimo olamon orasidan izlashgan. Shu jumladan, davlatni idora etishda shoh atrofidagi vaziru umarolar, a‘yonlar asosiy kuch ekanligini, oqil va dono maslahatchilar davlat uchun suv va havo kabi zarur ekanligi, odil podshoh va donishmand vazir ko‘z va qorachiq bir-birisiz ko‘rolmaganidek davlatni ham bir-birisiz boshqaraolmasligini anglab yetganlar. Har bir davrda sadoqatli, o‘zligini yo‘qotmagan, tadbirli do‘st hamisha zarur. Mamlakat qoshida o‘zining hiylayu nayranglari bilan shohni xarob qilgan, xalqni xo‘rlagan amaldorlar yoki o‘zining dunyolarga teng maslahati bilan xalqni ham shohni ham turli balolardan, bosqinlardan asrab qolgan faylasuflar hamisha bo‘lgan. Xalq kechmishida og‘riqlar, yaralar kechgan.

Jahon adabiyotida qadim zamonlardan tortib hozirgi davrga qadar xalqhayoti, dardi, ahli donishmandlar ulug'vorligi va donolik va hozirjavoblik aks etgan hind xalq eposi "Kalila va Dimna" asarida ham tarbiyaviy ahamiyat, davlat boshqaruvidagi mukammal san'atni ko'rishimiz mumkin.

"Kalila va Dimna" eposi "Panchatantra", "Xitopadeshe" va shu kabi boshqa asarlar bilan ildizi bir ekanligi aytiladi. Asar VI asrda Eron shohi Anushirvon davrida Hindistondan Eronga keltirilib, forsiyga o'girilgan. Tarjima asnosida sharq an'anasiga ko'ra tahrirlar, qo'shishlar, qisqartirishlar amalga oshirilgan. Natijada "Panchatantra" dan bir muncha farqli bo'lgan "Kalila va Dimna" asari dunyoga keladi. Asar arab, rus, tojik, ozarboyjon va o'zbek tiliga o'girilgan. Asar pand-nasihatga yo'g'rilgan ertak, masal, rivoyat va hikoyatlardan iborat bo'lib, hayvonlar, qushlar vositasida odamlarning qilmishlari va bu qilmishlarning yomon oqibatlari ochib beriladi. Ularda hind rojasi va Brahman Bedaboning suhbatlari asosida turli hikoyatlar ochib beriladi.

Asarda o'z podshosi sherga yaqin bo'lib, uning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lish uchun turli nayranglar o'ylab topib, sherning eng yaqin do'sti bo'lgan ho'kizni sherga, sherni ho'kizga qarshi qilgan makkor Dimna va uning o'g'li Kalilaning bu vijdon azobidan halok bo'lishi fitnachi vazir vavijdonli vazir sifatida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari sherning onasi o'zining donoligi va farosatliligi, sirni nomusidek saqlaganligi bilan alohida ibrat namunasi bo'loladi. Bundan tashqari qo'lidan kelmas ishga bel bog'lagan maymunning sharmandalarcha halok bo'lishi, yoki lochin bo'lishni orzu qilgan zag'chaning ayanchli qismati, "Zohid va mehmon" bobidagi mehmonning har ishga qo'l urib bir natijaga erisha olmaganligi qo'ldan kelmas ishga uringan insonlarga namunadir. Baliqchi qush hiylalariga aldangan laqma baliqlar esa hayotda hammaga ishonib aldangan va zavolga yuz tutgan insonlar obrazi sifatida aksini topgan. Bundan tashqari "Toshbaqa va chayon", "Maymun va toshbaqa", "Maymun va to'ng'iz" hikoyatlarida yaxshilikka yomonlik, albatta jazosini topishi asar mazmunida ochib berilgan.

Asarning daslabki boblarida bevafo do'stlar haqida hikoyatlar keltirilgan bo'lsa, keyingi boblarda sadoqatli do'stlar mavzusiga buriladi. Chinkabutar, qarg'a, sichqon, toshbaqa va ohularning uzilmas, mustahkam do'stligi, bir-birlari uchun jon berishga tayyorligi har bir davr uchun betekror do'stlik namunasi bo'loladi. Asarda bir og'iz so'z uchun butun oila va avlodlar o'rtasiga adovat, kin urug'i sochilgan "Boyqush va qarg'a" hikoyatida bu qushlarning o'rtasidagi janglar va ularning besamar natijalari aks etgan bo'lsa, so'ngda qarg'alarning ichidan chiqqan oqil vazirning sa'y-harakati butun boyqushlar ustidan g'alaba qozonishi tarzida davlat siyosatida doimo dono vazir bo'lmog'i lozimligini ko'rsatadi.

"Maymun va toshbaqa" bobida esa maymun va toshbaqaning chin do'stligi, ammo toshbaqaning unga xiyonat qilishi, maymunning bu xatodan ibrat olib, do'st

tanlashda ehtiyot bo'lishi kerakligini o'ylaganligi misolida insonlarga do'st tanlashda toshbaqadek sotqin do'stdan ehtiyot bo'lish joizligini olg'a suradi.

“Mushuk va kalamush” bobida esa faqat zarurat ehtiyoji tufayli dushmani mushuk bilan do'st bo'lgan kalamush va uning aql-farosati, dushmandan doimo ehtiyot bo'lmoqlikni ilgari suradi. “Shahzoda va Qubarraqush” bobida farzandlarining xatolari tufayli dushman bo'lgan shahzoda va Qubarra bir-biridan qasos olish uchun qilgan dushmanlik harakati, do'stlik rishtalarining uzilishi bilan yakun topgan. Bundan tashqari asarning “Onasher, shog'ol va ovchi” bobida qonxo'r sherning boshqa jonzotlar va ularning bolalariga qilgan sitamlari o'ziga ikki baravar bo'lib qaytishi yomonlikning jazosi dushvor ekanligining isbotidir.

Asarning “Bilor va brahmanlar” bobida esa shohning bir tunda yetti xil tush ko'rishi va bu tushlarni ta'bir etishda brahmanlarning shohdan qasos olish uchun qilingan nayranglari ularning boshiga balo bo'lganligi asarda davlat poyiga bolta uradigan sotqin amaldorlar timsoli aks etadi.

Kalamush hikoyatida keltirilgan sichqon va qurbaqaning do'stligi oxir-oqibatda ikkalasining ham zavolga yuz tutishi ikki jinsning hech qachon bir-biri bilan do'st bo'lolmasligining isbotidir. Bundan tashqari asarda bevafo ayollar, ularning makkorligi, ularga ko'rsatgan qabohatlar ham alohida e'tiborga molik.

Shahzoda va uning to'rt o'rtog'i haqidagi hikoyatda davlat boshqaruvida inson toleyida uch sifat: sa'y-harakat, mehnat-go'zallik, aql-omad juda zarur ekanligi haqida so'z boradi. Shahzoda va uning uch do'stida bu sifatlardan bitta-bittadan bor edi va ular birlashib butun mamlakatni osuda, farovon boshqara boshlaydi. Bundagi g'oya har bir davlatda shunday sifatlarga boy donishmandlar kerakligini ilgari suradi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, asrlar qatida saqlanib kelayotgan bu durdona asarlar nafaqat davlat boshqaruvida dasturulamal balki butun insoniyatga hikmat bo'lib kelmoqda. Umr g'animat, yetuk inson tarbiyati davr muommosiga aylanmoqda. Bundan besh asr ilgari ulug' bokomiz Alisher Navoiy aytgan quyidagi jumlar hanuzgacha eng maqbul chaqiriq bo'lib xizmat qilmoqda:

“Umrni g'animat bil, sihat va amniyatqa shukr qil. Fano tariyqin tuz, faqr bila mubohat ko'rguz. Mazhabingni ixfolig' bila eldin yaxshi asra va yormog'ingni yaxshi va yomondan maxfiy saqla. Aftodalig' bila xo'y tut va shikastalig' bila ko'ngulni ovut”.

Shunday ekan, bu durdonalar umr yo'limizda zulmatni yoritib o'tgan porloq mayoq, qolavesa butun bashariyatga ziyo bo'lib tag'in porlab turaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Kalila va Dimna”. Toshkent -2019. Tarjimon, S.G'aniyeva.
2. A.Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent-2018.
3. “Kalila va Dimna”. Toshkent-2012.
4. U.Hamdammov. Jahon adabiyoti. (o'quv qo'llanma). Toshkent-2017.